

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYANING TA'LIMDAGI TA'SIRI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Xorijiy til va adabiyoti”

kafedrasi katta o'qituvchisi

Mirzayeva Gulasal Ergashovna

mirzaevagulasal3@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti Filologiya fakulteti

Ingliz tili yo'nalishi I-bosqich talabasi

Mahkamova Sabrina Ikron qizi

sabrina.sabrina2405@gmail.com

Annotatsiya: Texnologiya hayotning bizga bergan katta hadyalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrni ko'plab mutaxassislar texnologiya asri deb atashadi, chunki zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Ta'lim sohasi ham texnologik innovatsiyalar ta'sirida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Texnologiya, albatta, biz yashayotgan hayot tarzimizni tubdan o'zgartirdi. U hayotning turli jabhalariga ta'sir ko'rsatdi va hayotga yangi ta'rif berdi. Shubhasiz, texnologiya hayotning har bir sohasida muhim rol o'ynaydi. Texnologiyalar yordamida ta'lim olish yanada qulaylashdi. Internet orqali darsliklar va akademik materiallarga tezkor kirish, vizual vositalar yordamida samarali o'rganish imkoniyatlari kengaydi. Onlayn ta'lim va raqamli vositalar o'quv jarayonini moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan shaklga keltirdi. Shuningdek, PowerPoint, Canva kabi dasturlar orqali darslarni yanada qiziqarli va samarali o'tkazish imkoni paydo bo'ldi.

Kalit soʻzlar: Ta'lim, zamonaviy texnologiya, o'qitish, online ta'lim, innovatsiya, AKT, material, dastur.

Annotation: Technology is one of the greatest gifts that life has given us. Many experts refer to the present era as the age of technology, as modern innovations have become a key factor in economic and social development. The field of education is also undergoing significant changes due to technological advancements. Technology has undoubtedly transformed our way of life, influencing various aspects of society and redefining the way we live. It plays a crucial role in every sector, including education, where it has made learning more accessible. The internet provides quick access to textbooks and academic materials, while visual tools enhance the effectiveness of learning. Online education and digital resources have made the learning process more flexible and personalized. Additionally, programs such as PowerPoint and Canva allow lessons to be conducted in a more engaging and efficient manner.

Keywords: Education, modern technology, teaching, online education, innovation, ICT, material, program.

Аннотация: Технологии — один из величайших даров, которые подарила нам жизнь. Многие эксперты называют наше время эпохой технологий, поскольку современные инновации стали важным фактором экономического и социального развития. Сфера образования также претерпевает значительные изменения под влиянием технологического прогресса. Технологии, без сомнения, коренным образом изменили наш образ жизни, затронув различные сферы общества и переосмыслив привычные нам процессы. Они играют важную роль во всех отраслях, включая образование, где сделали обучение более доступным. Интернет обеспечивает быстрый доступ к учебникам и академическим материалам, а визуальные инструменты повышают эффективность обучения. Онлайн-образование и цифровые ресурсы сделали процесс обучения более гибким и

персонализированным. Кроме того, такие программы, как PowerPoint и Canva, позволяют проводить занятия в более увлекательной и продуктивной форме.

Ключевые слова: Образование, современные технологии, обучение, онлайн-образование, инновации, ИКТ, материалы, программа.

21-asrni ko'plab mutaxassislar texnologiya davri deb atashadi. Negaki hozirgi kunda texnologiya hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi va u iqtisodiy o'sishning poydevori sifatida qabul qilinadi. Zamonaviy sharoitda texnologiyadan mahrum bo'lgan iqtisodiyot o'sish imkoniyatiga ega emas, chunki texnologiya bizning ish jarayonimizni sezilarli darajada yengillashtiradi va vaqtni tejashga yordam beradi. Texnologiyaning ta'siri deyarli barcha sohalarda seziladi, jumladan ta'lim sohasida ham. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunning zamonaviy talabalari texnologiyadan qanday foydalanishni afzal ko'rishlari va texnologiyadan foydalanish ularning o'qishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy uskunalar, texnologiya va vositalardan foydalanish talabalar o'rganishini va interaktivligini oshiradi. Ular, shuningdek, texnologiya yordamida o'qish jarayonini ancha interaktiv va qiziqarli deb hisoblashadi. Bilim almashinuvi juda oson, qulay va samarali bo'lishini aytishadi. Bu shuni anglatadiki, hayotning istalgan sohasida, ayniqsa ta'limda, zamonaviy texnologiya yordamida bizning ongimizni tezroq ishlashga undaydi. Bugungi kunda maktab, universitet va kollejlarda singari ta'lim muassasalarida texnologiyaning ahamiyati juda katta. Hozirgi kungi talabalar texnologiyadan quyidagi yo'llar orqali foydalanishlari mumkin: Internetga ulanish, kun davomida uzluksiz bog'lanish va ta'lim jarayonida internetdan samarali foydalanish shular jumlasidandir. Internet nafaqat talabalar uchun ulkan qulaylik balki barcha o'rganuvchilar, ustozlar uchun ham turli xil manbalar, darsliklar va boshqa akademik materiallarga kirish imkonini berib, bilim olish va umumiy o'quv jarayonini rivojlantirishga, ta'lim jarayonini yanada yaxshilashga, yangiliklardan bahramand bo'lishga, film va yangiliklar ko'rishga ham yordam beradi. Bugungi kunda yetakchi ta'lim muassasalari PowerPoint, Canva taqdimotlaridan foydalanib, darslarni yanada interaktiv va qiziqarli qilishga intilmoqda. Maktab va universitetlarda elektron uskuna va

darsliklardan foydalanish talabalar ishtirokini oshirib, ularning qiziqishini kuchaytiradi va ishtiyoqni yaxshilaydi. Talabalar faqatgina matn o'qishdan ko'ra, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradigan jozibali vizual materiallarni ko'rishni afzal ko'radilar. Shu bilan birga texnologiya ta'lim jarayonini ancha samarali qiladi. Ta'limda texnologiyaning ahamiyati quyidagilardir. Texnologiyaning ta'lim sohasidagi roli to'rt asosiy jihatdan muhim:

1. O'quv dasturining bir qismi sifatida – texnologiya ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.
2. Ta'lim yetkazib berish tizimi sifatida – texnologiya dars berishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.
3. O'qitish jarayoniga yordam berish vositasi sifatida – texnologiya ta'limni oson va tushunarli qilishga yordam beradi.
4. Umumiy o'quv jarayonini yaxshilash vositasi sifatida – texnologiya ta'limni yanada interaktiv va samarali qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilardan ularni o'z darslarida samarali qo'llashni talab qilmoqda. Shu sababli, yangi texnologiyalar o'qituvchilarning tayyorgarlik ehtiyojlarini oshiradi. Bundan tashqari AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiya) dan ham unumli foydalanishadi. Ta'lim sohasida AKT ta'limga kirish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, uning dolzarbligi va sifatini oshirish salohiyatiga ega. Tinio (2002) AKT ta'lim jarayoniga, xususan, bilimlarni egallash va o'zlashtirish borasida o'qituvchilar hamda o'quvchilarga juda katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. AKT o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va muloqotni kuchaytiradi, masofa qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ularni birlashtiradi. AKT shuningdek, talabalar uchun turli madaniyat vakillari bilan ishlash va guruhda hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalari va global dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, AKTdan foydalanish

nafaqat maktab ichida, balki undan tashqarida ham talabalar o'rtasida hamkorlikni oshiradi. Shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida yanada interaktiv munosabatlarni rivojlantiradiⁱ (Grégoire va boshq., 1996). Panitz (1996) fikriga ko'ra, "Hamkorlik – bu o'zaro ta'sir falsafasi va shaxsiy hayot tarzi bo'lib, unda shaxs o'z harakatlari, shu jumladan ta'limi uchun javobgar bo'ladi hamda tengdoshlarining qobiliyatlari va hissasiga hurmat bilan qaraydiⁱⁱ". AKT mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan foydalanib yangi bilim yaratish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchilarga o'z ijodiy fikrlarini rivojlantirish va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan mahsulot yaratish imkonini taqdim etadi.

Xulosa

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u ta'lim sohasida ham, boshqa sohada ham katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Texnologiyaning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi bilim olishni qulay, samarali va interaktiv shaklga keltirdi. Internet orqali istagan kerakli ma'lumotlarni olish va ko'rish, vizual ta'lim vositalaridan foydalanish va onlayn ta'lim imkoniyatlari o'quv jarayonini yanada takomillashtirishga katta yordam berib kelmoqda.

Shuningdek, PowerPoint, Canva kabi zamonaviy dasturlar darslarni yanada qiziqarli va samarali qilishga imkon yaratmoqda. Biroq, texnologiyadan to'g'ri va samarali foydalanish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar yetarli bilim va resurslarga ega bo'lishlari muhim.

Xulosa qilib aytganda, texnologiyaning ta'limga ta'siri ijobiy bo'lib, u o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kelajakda bu jarayon yanada rivojlanib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beranger, V. (2009, October 20) For kids, pen's mightier than keyboard. *futurity.org*. Retrieved February 25th 2013 from <http://www.futurity.org/society-culture/for-kids-pens-mightier-than-keyboard/#more-4909>.
2. Bounds, G. (2010, October 5) How handwriting trains the brain – forming letters is key to learning, memory, idea. *wsj.com*. Retrieved February 25th 2013 from <http://online.wsj.com/article/SB10001424052748704631504575531932754922518.html>
3. Branford, J., Brown, A., & Cocking, R. (2000). *How people learn: Brain, mind, experience, and school*. Washington, DC: National Academic Press.
4. Орипова, С. Н., & Мирзаева, Г. Э. (2023). ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОЙ ЗАИМСТВОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВОМ ДИСКУРСЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 537-541.
5. Brill, J. M., & Galloway, C. (2007). Perils and promises: University instructors' integration of technology in classroom-based practices. *British Journal of Educational Technology*. 38(1), 95-105.
6. Leising, J. (2013 January 30) The new script for teaching handwriting is no script at all. *wsj.com* Retrieved February 25th 2013 from <http://online.wsj.com/article/SB10001424127887323644904578272151551627948.html?KEYWORDS=handwriting>
7. Ugli, H. S. B. (2024). DIGITAL EDUCATION TECHNOLOGIES AND THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(12), 119-122.
8. Roschelle, J., Pea, R., Hoadley, C., Gordin, D., & Means, B. (2000). Future of children, 10(2), 76-101.